

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Dilafruz Satimova

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasi.....6

Umida Mahmudova

Raqamli texnologiyalar diskursi tarjimasida sun'iy intellekt ChatGPT va Google Translate tarjimon dasturlarining farqi.....23

Zilola Tillabayeva

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....37

Adabiyotshunoslik

Orzigul Hamroyeva

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi.....49

Alimuhtor Muhtorov

Nizomiy Ganjaviy siymosining milliy o'zlikni anglashdagi roli.....63

Vəzufə Xudiyeva

Azərbaycanda mövcud bibliografik ehtiyatlar sisteminin inkişafı.....76

Kishin Xajiboyev

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi.....87

Tarix. Manbashunoslik

Kemal Yavuz Ataman

Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul.....101

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi.....120

CONTENT

Linguistics

Dilafruz Satimova

Linguoculturological Study of Substandard Lexical units in
Uzbek Literature and their Translation into English.....6

Umida Mahmudova

The Difference Between Artificial Intelligence ChatGPT and Google
Translate in the Discourse of Digital Technologies Translation.....23

Zilola Tillabaeva

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of Samarkand Region
According to their form and meaning.....37

Literature

Orzigul Hamroeva

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and
Theoretical Literature Lessons"49

Alimukhtor Mukhtarov

The Role of Nizami Ganjavi's Image in Understanding National
Identity.....63

Vazufa Khudieva

Development of the Existing Bibliographic Resources System in
Azerbaijan.....76

Kishin Khajiboev

The Expression of the Concept of man and nature in the plot of the
novel "The shore that lost its river"87

History. Source studies

Kemal Yavuz Ataman

Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest
Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul.....101

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of
Religious Symbols.....120

SOTSILOGIYA. PSIXOLOGIYA
SOCIOLOGY. PSYCHOLOGY

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi

Komil Kalanov¹

Abstrakt

Maqolada muallif diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy jihatlarini sotsiologik tahlil etadi. Diniy ramziy belgilarni o'rganish asosida ma'lum bir hududdagi joy aholisining identiklik mavzusini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifni baholash O'zbekistonning mustaqillik yillarida milliy identiklikni namoyon etish obyektlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Unda milliy o'zlikni ifodalovchi diniy mansublikning ramziy belgilarini tadqiq etishga imkoniyat yaratadi. Sotsiologik adabiyotlarda "ramziy belgilar" so'zi ifodalanganda, ko'z oldimizda madaniyat timsoli gavdalangani. Ammo tarixdan guvohlik beruvchi yana bir jihat – bu "hujjatlarga asoslangan yodgorlik"lardir. Tarixiy hujjatlar avlodlarga ikkita merosni qoldiradi. Birinchisi – tarix, ikkinchisi – madaniyat. Har qanday yodgorlik qaysidir bir hujjatning matnida yoritiladi, ikkinchidan esa arablarning badiiy didi ularni instiktiv tarzda polixrom oq monumentlarni afzal ko'rishga olib keldi.

Muammoni tadqiq etishda sotsiologiyada keng tarqalgan "hujjatlarni tahlil etish" metodi yordamida muammoning bir davrdan ikkinchisiga transformatsiyalashib borish jarayoni o'rganilib, uning yakunini zamonaviy dunyoda diniy arxitekturaning identiklikka o'tkazayotgan ta'siri bilan ijtimoiy-madaniy asoslarini bayon etiladi.

Kalit so'zlar: *diniy ramziy belgilar, tarixiy xotira, ijtimoiy xotira, milliy identiklik, diniy identiklik, sotsiologiya, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, transformatsiya, ijtimoiy-madaniy tavsif, diniy ramzlar.*

Kirish

Ramzli tafakkur insonda davriy voqelik bilan bog'liq. Atrofga diqqat bilan razm solsak, bahs-munozaralarga yashiringan ramzlar dunyosida yashayotganligimizni his etamiz. Kitobni varaqlar yoki

¹*Kalanov Komil Kulaxmatovich* – sotsiologiya fanlari nomzodi, professor, Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (TIFT).

E-mail: komiljon@yandex.ru

ORCID ID: 0009-0009-2344-1814

Iqtibos uchun: Kalanov, K. K. 2024. "Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 120 – 146.

ijtimoiy tarmoqlardagi voqelikni kuzatib borar ekanmiz, o'zimizga tushunarli va ahamiyatli ramzlarga duch kelamiz. Alifbe harflari, arifmetik raqamlardan tashkil topgan so'zlar birikmasi ramziy mushohadani paydo qiladi. Ramzlar dunyosiga kirib borar ekanmiz, diniy ramzlar, tibbiyotdagi belgilar, pul birligi, yo'l qoidalari, san'at sohasidagi ornament belgilari, kompyuterlar dunyosida foydalananayotganimiz – axborot olish yoki qabul qilishdagi maxsus belgilar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib boramiz.

Kishilik dunyosi (sivilizatsiya) jadal sur'atlarda rivojlanib borar ekan, unda ma'lum bir hodisa va jarayonlarni ochib beruvchi ko'plab ramz va belgilar paydo bo'ladi yoki odatda ehtiyoj seziladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining belgisi va shtandartiga (bayrog'iga) ega bo'lish kerakligi to'g'risidagi ma'lumotlar 2021-yil 24-oktabr kuni sanasiga belgilangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar o'tkazilishi jarayonida tarqaldi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga tegishli qo'shimcha kiritildi. Qonunda Prezident belgisi va shtandarti (bayrog'i) tavsifi, ulardan rasmiy foydalanish tartibi Prezident tomonidan belgilanishi ta'kidlangan.

Muqaddaslik va tabu

Endi bevosita mavzudan kelib chiqib, diniy ramz va belgilar mavzusiga to'xtalib o'tamiz. "Diniy hodisalar tabiiy ravishda ikkita asosiy toifalarga bo'linadi: a) e'tiqodlar va b) marosimlar. Birinchisi – tafakkur holati, ular tasavvurlarda mavjud bo'ladi; ikkinchisi – harakatning muayyan usullari. Ilmiy dalillarning mazkur ikki sinfi o'rtasida tafakkurni harakatdan ajratib turuvchi ahamiyatli farq mavjud". XX asrning taniqli dinshunos olimi Mirche Eliade "Tafakkurning ramzli obrazi nafaqat bolalar, yozuvchilar va nodonlar e'tiborini o'ziga tortadi, balki u inson mohiyatini aks ettiruvchi kishilik tabiati, so'zlashish tili va tasviriy tafakkurga ham bog'liq. Ramz va belgilar borliqning hech bir fikrlash tarziga mos kelmaydigan ayrim yanada chuqur mushohada qilinadigan jihatlarni aks ettiradi. Ramzlar, belgilar, obrazlar, asotir-afsonalarni qandaydir ruhiy-botiniy o'y-xayollarga bog'lash noo'rin bo'lib, u inson mavjudligining yashirin jihatlarni ochib beradi. Ramz va belgilarini o'rganish bizga istiqbolda insonni chuqur anglashni o'rgatadi" [Элиада 2000, 57].

Amerikalik sotsiolog J.Terner ramzlarni udum va marosim (ritual)lar bilan bog'lab, uning tuzilmasini to'rt tomonlama

o'rganishni taklif etadi:

1) ramziy; 2) qadriyatli; 3) jismoniy (tana yordamida) his etish; 4) rollar asosida.

Udum va marosimlar, birinchi navbatda, ramzlar hamda belgilar jamlanmasidan tashkil topadi. Ramzlar kishilik jamiyatida marosimlarning oddiy bir bo'lagi sifatida ijtimoiy xulq-atvorni belgilab beradi. Ikkinchidan, ramzlar qadriyatlar tizimi va ularning iyerarxiyasi to'g'risida axborot beradi. Uchinchidan, har qanday marosimlar tizimiga maqsadlar belgisi sifatida qaralsa, unda albatta tadqiqotchidan izoh uchun ma'lum darajadagi ilmiy va diniy bilimlar talab etiladi.

Tanlangan mavzu bo'yicha qariyb 20 yildan ortiq vaqt ichida dala tadqiqotlari va ekspert so'rovlar olib borilar ekan, ramzlar va belgilarga asoslangan turli xil afsona, asotir va noodatiy, g'ayritabiiy hodisalarga nisbatan muayyan ma'noda immunitet hosil qilishni o'rgandik. Tadqiqotlar jarayonida muammoni tahlil etar ekanmiz, unda arxetiplar (K.G.Yung), tabular (Z.Freyd) va johillikka asoslangan vandalizm elementlarining muqaddas joylar, ziyoratgohlar va qadamjolarida yaqin va uzoq tarixning osori-atiqalari, artedalillari va buyum-jihozlarida ko'rish, o'rganish, tadqiq etish va tahlil qilish uchun ma'lum darajada bilimlarni shakllantira oldik. Nafaqat oddiy odamlar, balki tadqiqotchi yoki olimlikka da'vo qilayotgan ko'plab kishilarning atrof-muhitga nisbatan jiddiy e'tibor qilmasligi, eng oddiy tadqiqot usullari, nazariya va metodologiyani mukammal o'zlashtirmaslik tufayli ijtimoiy-diniy hodisalarga nisbatan, xususan, diniylik bilan dunyoviylik o'rtasida kechayotgan jarayonlarga diqqat bilan e'tibor bermaslik, voqelikni kuzatish, davriy-aylanma vaziyatlarda bo'ladigan o'zgarishlarni o'tkazib yuborish kabi kechinmalarni kuzatish mumkin.

Muqaddas joy va ziyoratgohlar misolida udum va ramzlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish jarayonida ularni qaysidir ma'noda ijtimoiy va ruhiy tinchlantirishga odatlangan hayotimizning sahna rollari yoki niqoblash (maskirovka) jarayoni sifatida, balki globallashuvning ijtimoiy-madaniy innovatsiyalar belgisini ifodalovchi sifatida ham talqin qilish mumkin. Shu bois ramzlar va belgilarga asoslangan faoliyatni o'rganish nafaqat o'z madaniyatimizni saqlab qolish, balki kelajakda identiklikning transformatsiyalashuv dinamikasi, millat sifatida madaniy rivojlanib borish omillarini belgilashda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Barcha mashhur diniy e'tiqodlar, ular xoh sodda, xoh murakkab bo'lsin, aynan bir jihatga ega. Ular odamlar tasavvur qiladigan real yoki ide-

al hodisalarni ikki sinfga, odatda, ikkita turli atamalar bilan belgilanuvchi, dunyoviy va diniy soʻzlar yordamida kechayotgan hodisalarni toʻlaqonli ravishda ifodalovchi oʻzaro qarama-qarshi turga ajratuvchi tasnifni taqozo etadi. Biz istiqomat qilayotgan olamning bir tomoni diniy jarayonlarni ifodalash uchun oʻzida “muqaddaslik”ni jamlagan boʻlsa, boshqasi dunyoviylikka oid boʻlgan jihatlarni qamrab olgan diniy ong va tafakkurning oʻzagi bilan namoyon boʻladi. Eʼtiqodlar, afsonalar, aqidalar, rivoyatlar “muqaddaslik” hodisasining tabiati, xususiyat va imkoniyatlari, tarixiy tarkib topishidagi oʻzaro munosabatlar va dunyoviy hodisalar bilan oʻzaro aloqalari tabiatini ifodalovchi tasavvurlar yoki tushunchalar tizimidir. Biroq muqaddas hodisalar sifatida jismlı obyektlar ham diniy hodisalarda oʻz ifodasini topganligini eʼtirof etishimiz lozim. Ularga togʻ choʻqqisi yoki gʻor, daraxt, buloq, tosh, daraxt shoxi, eski, qadimiy uy, aytish mumkinki, har qanday narsa muqaddas boʻlishi mumkin [Дюркгейм 1998, 217].

Ilmiy adabiyotlarda “muqaddaslik” mistika bilan bogʻlab tushuntiriladi. “Mistika” (grek tilidagi $\mu\sigma\tau\iota\kappa\acute{o}\varsigma$ – yashirin, maxfiy) – “koʻzlarni yumish”, “diniy mavzuga daxldor qilish” maʼnosini beradi. “Mistitsizm” (tarki dunyolik) ostida qandaydir “oʻziga xos oddiy usullar va intellektual intilishlar yordamida erishib boʻlmaydigan” gʻayritabiiy, sirli narsa va hodisalar tushuniladi [Шиммель 18]. “Dunyoda mistitsizm deb ataluvchi hodisalarda dastlabki sabablar, yaʼni oʻz-oʻzidan “Haqiqat” boʻlgan “Voqelik” haqida fikr yuritish mumkin emasligi taʼkidlanadi. Chunki, u sof ong yoki tafakkurning obyekti hisoblanmaydi. Tasavvufshunos olimda anglash uchun oʻrganilayotgan voqelikni oddiy usullar yordamida tadqiq etish imkoniyati mavjud emas. Uning mohiyatini falsafiy bilimlar koʻmagida, mavjud psixologik mushohada yoki sotsiologiya tafakkur orqali ochib berishning imkoniyati yoʻq. Uning qaysidir tomonlarini koʻra bilishga faqatgina yurak (qalb) koʻzi, gnozis orqali erishish mumkin”, – deb yozadi mashhur tasavvufchi olim Evelin Anderxill [Андерхилл 2000, 17].

“Diniy hodisalar tabiiy ravishda ikkita asosiy toifaga boʻlinadi: eʼtiqodlar va marosimlar. Birinchisi – tafakkur holati, ular tasavvurlarda mavjud boʻladi; ikkinchisi – harakatning muayyan usullari. Dalillarning mazkur ikki sinfi oʻrtasida tafakkurni harakatdan ajratib turuvchi ahamiyatli farq mavjud”. Ular ilm-fanda tabu shaklida ifodalanadi. Tabuning oʻziga xos alohida turlarini ajratib koʻrsatish mumkin:

1. Yashirin kuch (mana) natijasi, muayyan shaxs yoki narsa bilan bogʻliq boʻlgan tabiiy yoki bevosita tabu;

2. Aynan shu kuchdan kelib chiquvchi, kimdandir o'zlashtirilgan yoki bilvosita tabu:

a) o'zlashtirilgan tabu;

b) ruhoniy: sardor yoki yana boshqa bir kishi tomonidan yetkazib berilgan tabu.

3. Ikkita boshqa turlar orasidagi o'rta holatni tashkil etuvchi tabu, ya'ni aynan ikki omil nazarda tutilganda, masalan, bir erkak ayolni o'zlashtirgani kabi" [Фрейд 2006, 386–387].

"Muqaddaslik" atrofga tatbiq etib borilgani sari tabuning imkoniyatlari oshib boradi. Tabu asta-sekinlik bilan voqelikda o'z ifodasini topadi. "Biz uchun tabuning ma'nosi ikki qarama-qarshi yo'nalishda farqlanadi. Bir tomondan, u "muqaddas", "muqaddaslashtirilgan" ma'nosini anglatasa, boshqa tomondan "qo'rqinchli", "xavfli", "ta'qiqlangan", "harom" (jin, shayton) ma'nolarini anglatadi. Shunday qilib, ehtiyotkorlikni talab etuvchi nimalardir tabu bilan bog'liq. Aslida tabu taqiq va cheklovlarda namoyon bo'ladi. Ilmiy mulohazalardagi "muqaddas qo'rqinch" iborasi ko'pincha tabu ma'nosiga mos keladi.

Din sotsiologiyasida diniy hodisalarni o'rganish va tahlil etish muhim o'rin tutadi. "Diniy hodisalar tabiiy ravishda ikkita asosiy toifaga bo'linib, e'tiqod va marosimlarda namoyon bo'ladi. Birinchisi, tafakkur holatining tasavvurlardagi mavjudligi bilan ifodalansa, ikkinchisi, harakatning muayyan usullariga bo'ysunadi. Mavjud dalil va tahlillarda mazkur ikki yondashuv o'rtasida tafakkurni harakatdan ajratib turuvchi o'ta ahamiyatli farqlar kuzatiladi" [Редклифф-Браун 2001, 217 – 386]. Shu bois, diniy munosabatlarga kirishishda tafakkur va tasavurning xususiyatlarini inobatga olish zarur bo'ladi. Unda biz tadqiqotchi sifatida aynan ratsionallik bilan irratsionallikning muhim jihatlarini farqlab boramiz.

Ta'kidlaganimizdek, har qanday diniy hodisalarda tabu yashiringan bo'ladi. Shu ma'noda, tabuning belgilangan obyektidan kelib chiqib, o'ziga xos alohida turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Yashirin (ilohiy, g'ayritabiiy, sirli – K.K.) kuch ("Mana" – ijtimoiy antropologiya vakillari ilmiy adabiyotlarda mana so'zini "yashiringan", "ko'zga ko'rinmas" holatda ifodalaydilar) natijasi bo'lgan, muayyan shaxs yoki narsa (jism, buyum) bilan bog'liq bo'lgan tabiiy yoki bevosita tabu.

2. Yashirin kuchdan kelib chiquvchi, kimdan yoki nimadandir o'zlashtirilgan bilvosita tabu. U quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: a) o'zlashtirilgan; b) o'zga shaxs (ruhoniy, sardor va shu kabilar) lar tomonidan o'rnatilgan tabu.

3. Ikkita bir-biriga qarshi turlar orasida o'rta muvozanatni chetlab o'tuvchi tabu, ya'ni aynan ikki omil birlashuvi nazarda tutilganda, birining ikkinchisiga nisbatan qabul qilingan me'yoriy ta'qiqalar, masalan, erkak kishi oila qurishi uchun ayol kishini o'zlashtirgani (egallagani) kabi" [Фрейд 2006, 386 – 387].

Umuman olganda, biz o'z atrofimizda kimlar yoki nimadir tomonidan qo'yilgan tabularga e'tiborsiz munosabatda bo'lamiz, qaysidir bir tabu bizni qoniqtiradi, qaysidir birini turmush yoki tafakkur tarzimizning bir qismi sifatida davom ettirishga odatlanganmiz. Bizningcha, bu uzoq yillik ijtimoiy yoki tarixiy xotiraning hosilasi sifatida kundalik hayotga jamlanib boradi. Unda tabiat qonunlari bilan birgalikda jamiyatning doimiy o'zgarib borish jarayonidagi mafkuraviy munosabatlar ham o'z ifodasini topadi.

Muqaddaslik ma'lum bir shaxsning ongi va xalq tarixida mavjudlikning yakuniy, eng yuksak ma'nolarini tashuvchi muayyan kod sifatida ochiladi. Diniy nuqtayi nazardan, bu yuqori ma'nolar inson ongi tomonidan yaratilmaydi, ular obyektiv va unga nisbatan apriori. Inson ularni o'zi uchun diniy yoki axloqiy tajriba va estetik his orqali kashf etishi mumkin.

Muqaddaslik kodi psixologik, tarixiy, diniy, axloqiy, estetik darajalarda ko'riladi. U o'zida namoyon qilishning ma'naviy va madaniy hukmronligini aks ettirib, muqaddas qadriyatlardan dunyoviy e'tiqodga o'tish silsilalarida yuqori darajadagi "yuksalishi" va asta-sekin so'nishni aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik to'lqin sifatida namoyon bo'lishi mumkin. "Muqaddaslik" va dunyoviy chastotali tebranishlarda muayyan diniy va madaniy an'analar hodisalar sifatida namoyon bo'ladi.

"Muqaddaslik" vektorlarining birlashuvi natijasida tegishli muqaddas raqamlar, belgilar, ramzlar tashkil topadi. Bunday ramzlarga xoch, yarim oy, doira, svastika, yulduz va boshqalar misol bo'ladi. Muqaddas raqamlar ruhiy energiyaning kuchli generatorlari sanaladi. Ular insonning o'zini ruhlantiradi va dunyoning diniy timsolini shunga muvofiq ravishda tashkil qiladi [Ильченко, Шелюто 2016, 89].

Fikrimizcha, islomning ramziy belgilaridan biri hisoblangan yarim oy, ya'ni hilol haqida fikr bildirilganda, avvalo, iymonli kishilar, ya'ni musulmonlar hayotida osmon jismlari hisoblangan oy va quyoshning ta'siri mavzusiga to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Bunda tadqiqotchilar inson salomatligi, farovonligi yoki taqdiriga astrologik yoki ezoterik ta'sirni nazarda tutmaydilar. Ammo shuni ta'kidlash mumkinki, islomda mo'min-musulmonning bomdod namozini o'qish

vaqti, ramazon oyida ro'za tutishi, saharlik va iftorlik vaqtlarining boshlanishi kabi ibodat turlari quyosh harakati bilan belgilanadi.

Samoviy jismlarning joylashishiga qarab, kecha va kunduzdagi vaqt taqsimotining diniy o'lchami, besh vaqt amalga oshiriladigan namozning boshlanishi va kunlik holati, ovqatlanish va dam olish vaqtlari taqsimoti belgilanadi. Haj, zakot, fitr sadaqalari va diniy bayramlar, ibodat turlari oy taqvimining ma'lum sanalariga bog'lab o'lchanadi. Islom ta'limotida oilaviy ajrim jarayonlari, o'lim bilan bog'liq marosimlarda oy bilan bog'liq hodisalar, masalan, turmush o'rtog'i vafotidan keyin kutish davri va boshqa shu kabi ko'plab odat va marosimlar oy taqvimi bilan belgilanadi. Qur'oni karimda: **“Sendan yangi oylar haqida so'rarlar. Ayting: “Ular odamlarning va hajning muddatlarini belgilaydilar”** [Baqara surasi, 189-oyat]. Islom ulamolarining o'tmish va hozirgi kundagi ko'plab risolalari qamariy oylarni belgilash usullariga bag'ishlangan bo'lib, bu yangi oyning islom huquqidagi alohida ahamiyatini ko'rsatadi.

Yarim oy haqida gapirilganda, muqaddas Qur'oni karim kitobi va hadislarda unga ishora qilingan bo'lsa-da, uni din ramzi sifatida islomdan avval ham ishlatilganligi ma'lum. Arxeologik manbalarda yarim oy diniy timsol sifatida ko'plab qadimiy madaniyatlar, shu jumladan, turkiy xalqlar turmush tarzi va san'atida keng tarqalganligi ayrim ma'lumotlarda keltiriladi. Qadimgi xalqlar uchun to'lin oy go'zallik va inoyatni, yarim oy tug'ilish, qayta tug'ilish va oliyjanob hayotni anglatadi. Ayrim qabilalarda oyga sig'inish, u bilan bog'liq ko'plab afsonalar mavjud. Turkiy xalqlar orasida bir qator afsonalar oy bilan bog'liq bo'lib, O'g'uzxonning nurdan yaralgan qizga uylangani, ularning nikohidan Quyosh, Oy va Yulduz tug'ilgani aytiladi. Albatta, bu afsona va asotirlar turk dunyosi, ayniqsa, o'g'uz turklari kundalik hayotida yarim oy, quyosh va yulduz timsollarining “muqaddaslik kodi”ni ifodalovchi belgilarga aylanganligini juda ko'p jism va hodisalarda uchratishimiz mumkin.

Butun dunyoda ikkita bir xil shaxs yo'q bo'lganidek, bir xil mazmundagi madaniyatlar, dinlar, xalqlar yo'q. Shunday bo'lsa-da, ham tashqi va ham ichki sharoitlar ta'siri ostida “muqaddaslik kodi” har bir madaniyatda joylashtirilgan. Inson qalbida va xalq qalbida muqaddas “pulsatsiya” (ko'chma ma'noda: yurak urib turishi. K.K.)-lar yashiringan bo'ladi. Muqaddaslik kodi yig'ilgan shaklda muayyan xalqning madaniyat mavjudligining eng yuqori ma'nosini o'z ichiga oladi.

“Muqaddaslik kodi” inson jamoalari, turli klanlar, ijtimoiy

guruhlar, professional tashkilotlar, ijtimoiy sinflar, irqalar, xalqlar va millatlar ruhiyatiga joylashtiriladi hamda unga tegishli hisoblanadi. Muqaddaslik keng qamrovli tushuncha bo'lib, unda diskursiv fikrlash o'rniga his-tuyg'ular, iroda va sezgilarning maksimal kuchlanishi bilan bog'liq bo'lgan "iymon", "e'tiqod" harakatlari oldingi o'ringa chiqadi. Oddiydan murakkabga qarab bilishni o'z ichiga olgan ilmiy bilishdan farqli o'laroq, muqaddaslikni tushunish, asosan, murakkab va oddiyga qarab qat'iy farqlanishni ta'minlay olmaydi.

"Muqaddaslik kodi" makon va zamonda ochiladi. Muqaddaslik timsolida makonni kashf qilish, bizga o'ziga xos "mos yozuvlar nuqtasi"ni topish, tizimlilik va bir xillikka yo'naltirilgan "dunyoning yaralishi" va unga mos ravishda yashash imkonini beradi. M.Eliadega ko'ra: "Dindor shaxs" ijtimoiy makonning markazida bo'lishga intiladi. Ijtimoiy makonni his etish uchun uni yaratish kerak. Lekin, hech bir dunyoqarash dunyoviy makonning betartibliigi, bir xilligi va nisbiyligida yaralmaydi. Mos yozuvlar nuqtasi esa kashfiyot yoki loyiha "markazi", ya'ni ilohiy olamni yaratish bilan tengdir" [Элиаде 1994, 23]. Ilohiy olamda muqaddaslik Yaratuvchiga bo'ysunish demakdir. Buning ramzi marosimlar bo'lib, uning natijasida oddiy dunyoviy tartib ilohiy ma'noga ega bo'ladi. U semantik va energetik komponentlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday ijtimoiy tizim yashab qolishi uchun muayyan shart-sharoitlarga moslashishi kerak. Agar ushbu universal sharoitlardan biri, ya'ni jamiyatda jamiki inson ehtiyojlarini qondiruvchi sharoitlarni to'g'ri anglasak, sotsiologik qonunlarga ega bo'lamiz. Agar muayyan jamiyatdagi muayyan institutning mavjud sotsiumdagi ijtimoiy qoidalariga mos ekanligini ko'rsata olsak, ushbu institutning "ijtimoiy qiyofasi va xulq-atvori" haqida atroflicha gapira olishimiz mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda institutlar "umumiy" (sotsiologik kelib chiqish) va "xususiy" (tarixiy kelib chiqish) tasnifga ega bo'ladi. Birinchi holatni qiyosiy usul yordamida aniqlash sotsiologning vazifasi, ikkinchi holatni esa yozma manbalar orqali aniqlash tarixchining vazifasi hisoblanadi. Yozma va ijtimoiy tadqiqotlarga asoslangan manbalar mavjud bo'lmagan holatda madaniy antropologiya (etnolog) mutaxassisi og'zaki muhokamaga asoslangan gipotezalarni qurishi mumkin.

Diniy ramz va belgilarning sotsiologik tasnifi

Biz diniy ramz va belgilarning tarixiy transformatsiyalashuvi

va ijtimoiy dinamikasiga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni aynan shu aspektda yoritib o'tamiz. Zamonaviy dinshunoslik yo'nalishini o'rganishda ushbu uslubning yuqori ahamiyat kasb etishi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etiladi. "Diniy ekologik" yoki "din ekologiyasi" uslubining asoschisi, shvetsiyalik antropolog va din tarixi mutaxassisi A.Xultkrans bo'lib, u "atrofimizni o'rab turgan muhitning dinga ko'rsatadigan bevosita ta'sirini aniqlash"ni asosiy maqsad qilib belgilaydi" [Красников 1999, 63].

Diniy ramzlarni tadqiq etish manbashunoslik, etnografiya va tarix fanlarida o'z tadqiqot obyektidan kelib chiqib, turli darajalarda yoritilgan. Sotsiologiya, xususan, ijtimoiy antropologiya sohasida muammoga nisbatan ilmiy konseptual yondashilgan bo'lsa-da, bevosita uning mintaqaviy yoki hududiy aspektlariga chuqur kirib borilmagan. "Ramzlarda uchta o'ziga xos jihat farqlanadi. Bular: ekzegetik (joyning o'ziga borish); operatsion (tez va mukammal); vaziyatga oid qismlardan tashkil topadi.

Ekzegetik jihatdan marosimlar o'tkazish tizimida uning ijrochilari tomonidan bajarilgan rollarni tadqiqotchi bergan izohlar to'plami tashkil etadi. Operatsion holatda - turli yosh va jinsga mansub kishilarning marosimlar vaqtida tutgan o'rni, roli, maqomi, ezoterik (kishilardagi mistik bilimlar orqali voqelikni tasavvur qilish) bilimlari bilan rollarning ijrosini holatga, hodisalarni izohlash va botiniy mantiqqa ega bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish tushuniladi. Tadqiqotchi vaziyatga oid qismni baholar ekan, unda mavjud ma'lumotlar orqali a'zolar, ya'ni ishtirokchilarning marosim haqida qanday fikrda ekanliklari to'g'risidagi xulosasi taqdim etiladi" [Тернер 1983, 41].

Ijtimoiy voqelikning vizual tarkibiy qismlari, ya'ni oddiy ko'z yoki o'tkir nigoh yordamida qabul qilinuvchi va muqarrar ravishda moddiy asosga ega bo'lgan komponentlari ahamiyatli ravishda zamonaviy dunyoni anglashga ta'sir ko'rsatadi. Insonni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy makonda badiiy ijod sarhadlaridan chiqib ketgan va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan turli ko'rinishdagi vizual shakllar (fotosurat, rasmlar, reklama, kino, media namunalari, arxitektura, haykaltaroshlik) muhim o'rin tutadi. Verbal va vizual, real va virtualning yangicha nisbati quriladi, individlarning vizual layoqati, vizual belgilarni "o'qish" ko'nikmasini shakllantirish zarurati vujudga keladi.

Doimiy ravishda chuqurlashib boradigan dunyoning ijtimoiy manzarasini aks ettirish jarayoni inson ongi va uning o'zini o'zi rivojlantirib borishdagi tarixiy jarayonlarda namoyon bo'ladigan

o'ziga xos xususiyat sanaladi. Inson o'zining kognitiv amaliyotida qisqacha faraz, ya'ni ilgari surilgan gipotezadan kelib chiqib, abadiy "tasodifiy baxt" tushunchasini yashab o'tadi. Faylasuf S.Kerkegor tarixiy rivojlanish bosqichlarini insonlar bosib o'tar ekan, bir vaqtlar tashqi olam haqida paydo bo'lgan shubhalar keyinchalik muqarrar ravishda insonning o'z ichki olamiga nisbatan shubha tug'diradi, deydi. Bu esa kishilarda o'z bilim va qobiliyatlarini jamiyatning taraqqiyot mexanizmlariga nisbatan diqqat bilan qarash, ongli va ongsiz tartib jarayonlarini e'tibor bilan o'rganishga olib keladi [Pareto 1963, 99].

Insonning instinktiv ehtiyojlaridan biri bo'lgan fenomenal olamni chuqur anglash va tushunarli tarzda doimiy tartibga solish, tizimlashtirish va tasniflash estetik ifodalangan garmoniyani talab etadi. Inson o'zi anglamagan holda doimiy asosda atrofidagi ko'p narsalardan begonalashishi, o'zini "tashlandiq" his qilishi va zaifligini namoyon qilishi mumkin. Lekin, ikkinchi tomondan, u ongli ravishda atrofga nisbatan ichki norozilik bildirib, uni unutayozgan dunyoni o'ziga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

Kishilik dunyosida paydo bo'lgan barcha diniy elementlarni ko'z oldimizdan o'tkazadigan bo'lsak, kishilik dunyosi "totemizm" orqali mavjud borliqdagi narsalarga o'zining qarindosh ekanligini ishontirdi. U "animizm" orqali borliqning ratsional ekanligini tan oldi, "sehr" (magiya) orqali o'zida borliqqa nisbatan o'zaro ta'sir qilish imkoniyati mavjudligini vujudga keltirdi. Nihoyat inson o'z hayot faoliyatida borliqni yagona yaratuvchi pozitivga hamda olamni aql bilan tushunish uchun "falsafa" yoki "fan"ga qaratdi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, kishining borliqqa moslashishga intilishi, inson zotini himoya qilish harakati, hayotiy kechinmalar va ruhiy tekisliklarda amalga oshirilgan o'zlikni saqlab qolishi ijtimoiy instinkt hisoblanadi.

Sotsiolog Vilfredo Pareto birinchi o'ringa "qoldiqlar" instinkti turkumidan kelib chiqib, oltita "qo'shma instinkt"lar shaklini ilgari suradi. U asosiy inson instinkti sifatida eng so'nggi "qoldiq instinkti" o'rnining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu so'nggi instinkt insonlarning atrofda dunyoviy munosabatlar va undagi o'zaro aloqalarni ko'rish, assotsiatsiyalar yaratish, ya'ni narsalarni hayot uchun bog'lash imkoniyati bilan bog'lash mas'uliyatidir, deb talqin qiladi Pareto. Ushbu qobiliyat insonning o'z erkin tanloviga bog'liq bo'lmay, xuddi nafas olish yoki olmaslikni "Yaratuvchi" hal etganidek, unga bog'liq qilib qo'yadi. Angliyalik sotsiolog T.Nobl insondagi his-tuyg'ularni quyidagicha ifodalaydi: "Biz tashqi dunyo

kechinmalarini tajribamizda tartibga solish va tizimlashdan boshqa ilojimiz yo'q" [Noble 2000, 109-110].

Darhaqiqat, ramziy hodisalar insonning borliq, o'z navbatida borliqning inson bilan o'zaro munosabatlar tizimidagi uyg'unlashuv quroli hisoblanadi. U ijtimoiy tuzilmalarni shakllantiruvchi mohiyat shaklidir. Sotsiologik kategoriya sifatida har qanday ramziy belgilar, jumladan, diniy ramzlar o'zining ma'nosi va bajaradigan roli jihatidan paradoksli (oddiy iboralar fikrlarga zid va xulosalar asosga to'g'ri kelmaydi)dir. U kognitiv olam va turmush amaliyotlarida vujudga kelgan vosita va natijani ifodalaydi. E.Fromm ramzlarning "tasodifiy", "shartli" va "universal" shakllari mavjudligiga e'tibor qaratadi. Ramzlardan farqli ravishda belgilar, jumladan, diniy belgilar ham "o'ziga xos va umumiy", "aniq va ongsiz", "neytral va hissiy" jihatdan quvvatga ega bo'lishi mumkin. Ramziy hodisalar empirik tajribani amalga oshishida nazariy umumlashgan "mavjudlik" metodologiyasi hamda inson ongi faoliyati doirasida tarqatiladigan muqarrar ravishdagi ramziy faoliyatga bo'ysunadi. Ta'kidlash mumkin, "majoziy dalillar" siz borliqni anglash va ramziy belgilarga ega bo'lmagan o'zaro ta'sirni aniqlash mumkin emas.

Inson bilimi va tafakkuri, uning mavjudlik "so'qmoqlari"dagi tabaqalanishni hisobga olgan holda, ramziylikda quyidagi turkum va vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) gnoseologik funksiya (idrok va tafakkur yoki noema);
- b) gnoseo-an'anaviy funksiya (dunyoning uyg'unligi yoki garmoniya), umumiy jamoaviy integratsiya;
- c) estetik ramziy belgilar;
- d) terapevtik ramziy belgilar.

Ramzlardagi "kommunikativlik" esa funksiyaviy rollarni emas, balki xususiyatli ijroni amalga oshirib, unda hamma narsani bajarish ongda o'zaro ta'sir tizimini shakllantiradi. Har qanday gnoseologik va ijtimoiy-kommunikativ funksiyalar ijtimoiy borliqning "alfa" va "omega" turini tashkil etadi. "Alfa" ko'rinishda borliq nimadan boshlanadi, dunyoning birinchi yaratilish akti, "joylarning nomlanishi" nimalarda ifodalanadi? "Omega" shaklda esa inson va borliq o'rtasidagi o'zaro aloqalar majmuasining xususiyatlari, xarakter va transformatsiyalashuv dinamikasi belgilanadi va tasdiqlanadi. "Alfa" va "omega" elementlari orqali ramziy belgilarni tasniflar ekanmiz, "alfa"da "shaxs-shaxs", "omega"da esa "shaxs-institut" formulasi yoki spektrlar o'lchovini aniqlaymiz. Ramziy belgilardagi o'zaro ta'sir mexanizmlari va tabiatini o'rganish, undagi namoyishkorona muhitning paydo bo'lish jarayonidagi qonuniyat

va bog'liqliklar aniqlanadi.

Diniy munosabatlarda ramziy majmualar yaratishdagi mantiqiylik qanchalik dolzarb bo'lsa, unga nisbatan talabchanlik shuncha oshadi va uzoq vaqt davomiy bo'ladi. Biz istiqomat qilayotgan dunyoda diniy ramziy belgilar o'zining chuqur iz qoldirganligi bilan namoyon bo'lishi xalqaro munosabatlar darajasida ham siyosiy-diplomatik mazmun kasb eta boshladi. Zamonaviy dunyo chuqurlashgan tasvirlar olamiga kirib borar ekan, unda ramziy belgilarning nafaqat pozitiv (ijobiy), balki jiddiy va dramatik, ziddiyatli shakllarini ham kuzatish mumkin. Bugungi dunyoda ijtimoiy o'zaro ta'sir o'tkazish masalalari har tomonlama tahlil etilar ekan, unda uyg'unlashuvning hamkorlik usullarini izlab topish kerak bo'ladi.

Individual va ommaviy ramziy belgilarning ijtimoiy ongdagi mavjud bo'lish xususiyatlari, paydo bo'lish mexanizmlari va yashovchanlikdagi mantiqi nimalardan iborat ekanligini aniqlash zamonaviy sotsiologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Sotsiologik tadqiqotlarda ramziy hodisalarga bo'lgan qiziqish tarixi hamda uni yoritish uchun shu kungacha ishlab chiqilgan metodologik yondashuv va nazariyalarni hisobga oladigan bo'lsak, ushbu vazifaning ilmiy tahlilini amalga oshirish mumkin. Shu bois, o'ziga xos va umuminsoniy hodisa bo'lgan ramz va belgilarning sotsiologik jihatlarini o'rganish ma'lum ma'noda xarakter namoyon etadi. To'g'ri, tadqiqotchi ramzlarni ijtimoiy nazariyalarning biron bir alohida paradigmasi sifatida shakllantira olmaydi. Chunki belgilar o'zga spekuliyativ qarash va cheklovlarga nisbatan nomutanosibdir. Shuning uchun ham muammoni mikrosotsiologik yondashuvlarda sharhlash va tadqiqotlar olib borish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ramzlarning universal ahamiyatini sotsiologik hodisa sifatida tadqiq etish bilvosita mazmun kasb etib, uning ijtimoiy bilimlar konsensusi orqali mohiyatini ochib berish uchun empirik amaliy tadqiqotlarning o'рни muhim [Гегель 1992, 79]. Biz o'z tadqiqot ishlarimizni olib borar ekanmiz, milliy sotsiologiya fanida ilk bor "muqaddaslik", "ratsionallik", "irratsionallik", "ramziy belgilar", "vizual yondashuv" kabi masalalarni ko'tardik va buni mikrosotsiologiyaning tadqiqot yo'nalishlarida qilingan ilk qadamlardan biri deb hisoblash mumkin. Sababi shu paytgacha mahalliy sharoitlarda asosan makrosotsiologik tadqiqotlar bilan vaziyatga prognostik baholar berilgan.

Mazkur tadqiqot ishida ilgari surilgan asosiy vazifalardan

biri ramziy interaksionizm nazariyasining ijtimoiy-metodologik yondashuvi sifatida tahlil qilishdir. Shunga asoslanib, ramziy belgilar xususiyatini ochish mumkin bo'lgan metodologik tamoyillar, jumladan, nazariy prolegomaina (muammoga kirish)larni empirik usullarni qo'llash asosida zamonaviy variantlari shakllantirildi va ijtimoiy o'zaro ta'sir vositasidagi asosiy tizimlari tahlil etildi.

Diniy ramz va belgilarning nazariy-metodologik jihatlari

Ramziy belgilarning tarixi uzoq va keng qamrovli bo'lib, uning ijtimoiy makon va borliqdagi chegarasi turli mualliflar tomonidan keng o'rganilganligiga qaramasdan, ba'zida uning ahamiyatli nuqtalarini aniqlash qiyin kechadi. Shunday bo'lsa-da, ramz va belgilar ijtimoiy hodisa sifatida faol qo'llaniladigan identiklik (aynanlik, monandlik) yo'nalishi sifatida aniq mazmunga ega. Sotsiologiyada ramzlar doimiy va an'anaviy ahamiyatga ega bo'lib, unda madaniy, ijtimoiy va kognitiv antropologiyaning hissasi katta o'rin tutadi. Toifalarga bo'lib o'rganish asosida ramziy belgilarga lingvistika, semantika, semiotika (belgilar bilan ishlash) usullari, hamda ijtimoiy va kognitiv psixologiyaga oid psixoanalizni qo'llash orqali tadqiqotlar o'tkazish xos. XX asr oxirlarida shakllangan me'moriy (arxitektura) antropologiyada ramz va belgilarga alohida sotsiologik yondashuv muhim o'rin tutib kelmoqda.

Buyuk nemis faylasuflari I.Kant va G.Gegel ramziy hodisalarga bo'lgan munosabatda deyarli bir xil pozitsiyada bo'ladilar. Ularning ramzlar haqidagi tushunchasi bir butun simmetriya bilan Platon an'anasini davom ettirishga qaratiladi. Har ikki olim ramziy timsolni ijtimoiy mavjudlikning uzluksiz refleksiyasidan iborat ekanligini "sezgilardan tashqari dunyoviy vositachilik" sifatida talqin qiladilar [Кассирер 2000, 201]. Ushbu yondashuvga ko'ra, hodisalar idrok va tafakkur nomenklaturasi, boshqacha aytganda, empirik xulosalarning faoliyat ko'rsatkichi sanaladi. Shunday qilib, I.Kant va G.Gegelning gnoseologik rivojlanish kontekstida o'rganilgan ramziy belgi yoki timsollar, asosan, mavhum, metafizik va an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan.

I.Kassirer ramz va belgilarni atroflicha tadqiq qilar ekan, u ramzlarni neokantchilik doirasida hissiy xilma-xillik, ya'ni irratsionalizmga asoslangan aprior mantiqiy tuzilma sifatida izohlaydi. U "Ramziy shakllar falsafasi" [Свасьян 1989, 284] nomli asarida madaniyat hodisasining paydo bo'lishi va mavjudligi haqidagi muammolarni hisobga olgan holda til, afsona va ilm-fanni dunyoning ramziy ma'noli timsoli sifatida belgilaydi. Uning

fikricha, ramziylik keng qamrovli madaniy olamning mavjud bo'lish yo'llari va shakllarini ifodalaydi. Amerikalik faylasuf S.Lenjer ramziy muammolarni o'rganar ekan, I.Kassirerning yondashuvlariga muvofiq ramzlarni inson ruhiyatining tabiiy shart sharoitlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, deb talqin qiladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalari – bilishdan tortib san'atgacha S.Lenjer tomonidan ramziy soha, deb e'tirof etiladi [Иванов 1994, 301]. U ramzlarni “ifodalangan” g'oya sifatida tushunishni, shuningdek, ramziy belgilarda umumiy mantiqiy shakl bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Mashhur nemis faylasufi O.Shpengler ham ramz va ramziy munosabatlarga jiddiy yondashgan. U “Yevropaning qulashi” nomli asarida ramziylik hodisasini madaniyatlar va sivilizatsiyalarning paydo bo'lish muammolari asosida ko'rib chiqib, kishilarning o'zlik va borliqni anglashlarida ramzlar o'ziga xos metafizik va paradoksal antologik landshaft sifatida namoyon bo'lishini idrok etadi. Ushbu landshaft shartli ravishda aqlni kelajak ta'limining fermenti, ya'ni “birinchi ramzi” sifatida ifodalab, uni “madaniy ruh” deb nomlaydi. O.Shpenglerning fikricha, birlamchi ramziy timsolni so'z bilan konseptual tarzda ifodalab bo'lmaydi. Chunki til va bilish shakllarining o'zi kelib chiqishiga ko'ra ramziydir [Касперавичюс 1990, 298].

Ramziy belgilarga ijtimoiy-madaniy yondashuv.

Madaniyatning ramzlarga ta'siri

Sotsiologiyada ramziy hodisalarga nisbatan uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan qiziqish va hozirgi kungacha o'rnatilgan yondashuv hamda nazariyalarni inobatga olsak, ramziy timsollar o'ziga xos umuminsoniy hodisa bo'lib qolaveradi. Albatta, tadqiqotchi uni ijtimoiy nazariyaning biron bir alohida paradigmasi bilan bog'lab o'rganishga majbur. Boisi, unda madaniyat masalasi ustuvor bo'lib qoladi. O'zbek tilidagi ko'plab ensiklopedik lug'atlarda “Madaniyat” arabcha – madina (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqanligi yozilib, u tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli, degan ma'noda talqin qilinadi. “Madaniyat alohida shaxs (individ), ijtimoiy guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradigan tushunchadir.

Dastlab, “madaniyat” tushunchasi insonning tabiatga nisbatan maqsadga muvofiq ta'siri (yerga ishlov berish, ya'ni kultivatsiya qilish, lotincha “culture” so'zidan olingan) hamda insonning o'zini tarbiyalash, o'ziga ishlov berish ma'nolarini

ifodalagan. Keyinchalik “madaniyat” tushunchasi vositasida “sivilizatsiya” (taraqqiyot) bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlandi. Madaniyat inson faoliyatining mahsuli va sifat ko‘rsatkichi sanaladi. Insonning o‘zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo‘lsa, inson ham shunday shakllanadi” [Фалсафа қомусий луғат 2004, 230].

“Madaniyat” so‘zining tarixiga e‘tibor qaratilsa, u ijtimoiy hayotda ma‘no jihatidan murakkab talaffuzga ega mazmun kasb etib, ilmiy-amaliy va kundalik hayotda keng qo‘llaniladi. Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda ong va tafakkur bilan bog‘liq ijtimoiy tizimlardagi murakkab tushunchalarning izohini ta‘riflashda ham madaniyatga murojaat qilinadi.

“Madaniyat” atamasining ma‘nosi fanga qanday qilib kirib kelgani va shakllangani to‘g‘risida tilshunos tadqiqotchi R.Uilyams bildirgan fikrlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu atama “colore” so‘zidan olingan bo‘lib, uning turli Yevropa tillari talaffuziga o‘rnashishida lotincha “cultura” so‘zining ta‘siri yuqori bo‘lgan. Ijtimoiy fanlarda “colore” atamasi “o‘rnashib olmoq”, “madaniylashtirmoq”, “otaliqqa olmoq”, “bo‘ysunmoq”, “amal qilmoq” kabi ma‘nolarda keladi. Ushbu jumalarning ayrimlari vaqt o‘tishi bilan o‘zining mustaqil ma‘nosiga ega bo‘lib bordi va ilmiy atamashunoslikda keng qo‘llanilib, ayrim holatlarda joyi kelsa, ma‘no jihatdan bir-birini to‘ldirib turadi. Jumladan, “o‘rnashib olmoq” so‘zi ma‘nosi lotin tilidagi “colonus” so‘zidan olingan bo‘lib, keyinchalik “koloniya” so‘zining kelib chiqishi uchun sabab bo‘lgan. “Amal qilmoq”, “bo‘ysunmoq” fe‘llari esa lotincha “cultus” so‘zidan olingan bo‘lib, hozirgi adabiyotlarda “sig‘inish” (kult) ma‘nosida ishlatiladi.

“Sulture” atamasi dastlab “xizmat qilmoq”, “amal qilmoq” so‘zlariga mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan “rivojlantirish”, “kultivatsiya qilish” ma‘nolarini berib, o‘rta asrlardagi ingliz tilida u to‘g‘ridan-to‘g‘ri “xizmat ko‘rsatish” ma‘nosini anglatgan. Qadimgi fransuz tilida “couture” so‘zi qisman biomadaniyat izohida qo‘llanilib, kundalik hayotda alohida mazmun kasb etgan. Keyinchalik “culture” shaklida talaffuz qilina boshlandi. Fransuzlarda “sulture” so‘zining arxaiik foydalanilgan jumlarining barchasida, masalan, hayvonot yoki o‘simliklar dunyosini madaniylashtirish (kultivatsiya qilish) jihatlari tushunilgan. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu atamaning boshqa Yevropa xalqlari lahjasida qo‘shimcha ma‘nolari paydo bo‘lishiga olib kelgan. Xususan, ingliz tilidagi “coultur” (plug, so‘qaning tishi ma‘nosida keladi) so‘zi lotin tilidagi mehnat qurolini anglatuvchi “culter” so‘zidan kelib chiqqan. Uning keyingi evolyutsiyasi madaniylashtirish (kulti-

vatsiya qilish), tabiiy hodisa va jarayonlarni insoniyat bilan bog'lash, odamlarni unga o'rgatish va madaniy rivojlantirish bilan bog'liq tasavvurlar bilan izohlanadi. Shunday bo'lsa-da, ushbu so'zning qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ma'nosi ko'p asrlar davomida saqlanib qolgan. Agrokultura, kultivatsiya kabi so'zlar shular jumlasidan.

XVIII asr o'rtalarida Yevropa mamlakatlari, xususan, Angliyada madaniyat yoki ilmiy ma'noda "kultura" atamasi aql va tarbiya bilan uyg'unlashtirildi. Ingliz faylasufi F.Bekon o'z qarashlarida "madaniyat va aqlni parvarishlash" haqida fikrlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, parvarishlash kultivatsiyaning sinonimi o'rnida keladi. Shu davr ruhoniylari "zodagon kishilarning o'z farzandlarini tarbiyalash uchun cherkovga topshirishni istamayotganlari va buning o'rniga "bola tug'ilganidan uning aqlini madaniyatlashtirib borilayotganligi" (persons of either birth or culture) to'g'risida noliydilar" [Бекон 1979, 167]. Bunda ikki jihatga to'xtalib o'tish muhim: birinchidan, metafora, ya'ni majoziy ma'noda madaniyat bilan tarbiyaning uyg'unlashuvi odatiy bo'lib bora boshladi. Unda aql (ong va tafakkur) inson ma'naviy yuksalishini shu ikki omil bilan parvarishlab bordi; ikkinchidan, insonning ruhiy erkinligi va uning individual ijtimoiy imkoniyatlari ijtimoiy hayotda rivojlanish va takomillashib borishi uchun "madaniyat" atamasidan unumli foydalanishga sabab bo'ldi. Bu esa ushbu atamaning fanlar tizimida yanada universallashtirishga olib keldi.

XVIII – XIX asrlarda zamonaviy "madaniyat" so'zining ko'p qirrali, ammo chalkash ma'noli tarixi boshlandi. Bu davrda madaniyatning izohini ifodalovchi "culture" talaffuzi yoniga "civilis", ya'ni "fuqaroga taalluqli", "fuqaroga oid" ma'noni beruvchi atama qo'shildi. U lotincha "civis" – "fuqaro" so'zi bilan qo'shilgan holda "sivilizatsiya" jamlanmasining o'zagini tashkil qiladi. XX asrning 90-yillarida (keyinchalik ham) o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani forsiydagi "tamaddun" so'zi bilan izohlashga harakat qildilar. Ta'kidlash mumkinki, bu izoh o'zbek tilida o'zining to'liq lug'aviy ifodasini bera olmadi. Xususan, sotsiolog va siyosatshunos tadqiqotchilar orasida keng munozarali asar hisoblangan S.Xantingtonning mashhur asari ingliz tili ("The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order")dan tarjima qilinganda "Tamaddunlar yoki sivilizatsiyalar to'qnashuvi..." deb emas, balki "Madaniyatlar to'qnashuvi..."¹ deb talaffuz qilinmoqda (K.K.).

Ijtimoiy fanlarning uzoq muddatli evolyusiyasi davomi-

¹Asar rus tiliga "Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка" deb tarjima qilingan.

da “sivilizatsiya” atamasi dunyodagi tarixiy jarayonlar va uning yutuqlarini, insonning jismoniy, ma’naviy va ruhiy kechinmalaridagi axloqiy tarbiyaning poklanishi, qonunchilik ustuvorligi hamda jamiyatdagi ijtimoiy tartib ma’nolarini anglatib keldi. XIX asr oxirlarida dastlab Fransiya, keyinchalik Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlari “sivilizatsiya” so’zi ko’plik ma’nosida qo’llanila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati bir vaqtning o’zida yangi madaniyatlar bilan to’qnash keldi. Buning natijasida turli sivilizatsiyalar to’g’risida fikr-mulohazalarga oid asarlar paydo bo’la boshladi.

Sobiq ittifoq paytida “madaniyat” atamasiga berilgan izohlar, tabiiyki, rus tilidagi manbalardan keltirilgan. Bu vaqtda “madaniyat” so’zini “Madina” shahriga qiyoslab yozilgan kitob yoki maqolalar qariyb uchramagan. “Kultura” fe’li rus tilida N.Kirilovning 1845-yili chop etilgan “Xorijiy tillar cho’ntak lug’ati” da ilk bor iste’molga kiritilgan. Lekin unga shu vaqtda jamiyatshunos mutaxassis va davlat arboblarning alohida e’tibor qaratmaganligi ma’lum. Rus mutafakkir olimi I.Pokrovskiy o’zining “Rus tilidagi xatolar bo’yicha qaydlar varag’i” asarida ushbu so’zni muloqot uchun keraksiz, deb aytgan.

XIX asrning 80-yillariga kelib kultura, ya’ni madaniyatning zaruriyati xususida G’arb tillarida berilgan ma’no bo’yicha iste’molga kiritilishiga ruxsat etiladi. Atoqli rus tilshunos olimi V.Dal tomonidan yozilgan to’rt jildlik lug’atning ikkinchi qismida “kultura” so’ziga qisqagina to’xtalib o’tadi [Даль 1881, 217]. Bunda madaniyat ma’nosi Yevropa tillarida qanday shaklda bo’lsa, shu holatda beriladi. “Sivilizatsiya” atamasi esa jamiyatning umumiy holatidan kelib chiqib, alohida shaxslarning tarbiyasi va xulq-atvori darajasida tushunilib, yovvoyilik va varvarlikka to’la-to’kis qarshi holatda tasvirlanadi.

Zamonaviy Yevropa tillari ijtimoiy fanlarida “madaniyat” so’zining to’rtta asosiy ma’nosi qiyoslab ko’rsatiladi:

1) umumiy jarayonlarning intellektual, ma’naviy, estetik rivojlanishidagi mavhum ma’nolar (masalan, oliy ma’lumotlilar madaniyatli kishilar; ammo barcha oliy ma’lumotlilarning intellektual darajasi baland bo’lmasligi, estetik didi yuksak darajada shakllanmagan bo’lishi ham mumkin va h.k.);

2) jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida huquq, tartib, axloq tolerantligiga asoslangan ma’noda keluvchi madaniyat (ushbu vaziyatda madaniyat so’zi sivilizatsiya so’zining ma’nosi bilan mos keladi);

3) muayyan jamiyat yoki insonlar guruhining ma’lum tarixiy davriga xos bo’lgan mavjudlik usuli yoki hayot tarzining

xususiyatlariga mavhum ishora (masalan, sugʻdlar madaniyati, maya madaniyati va b.);

4) aqliy-intellektual madaniyat, bunda badiiy faoliyat shakli va mahsulotlarining mavhum tavsifini ifodalovchi musiqa, adabiyot, rangtasvir, teatr, kino va shu kabilarni anglash mumkin. Asosan, madaniyat vazirligi tasarrufiga kiruvchi ushbu jarayonlarni katta ehtimol bilan aholi “madaniyat” sifatida talqin etilishi koʻp kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan taʼriflardan kelib chiqib, “madaniyat” soʻzining maʼnosi umumiy jihatdan bir-biriga qisman bogʻliq boʻlib, insonning jamiyatda tutgan oʻrnini belgilashda yuksak tuygʻularni ifodalovchi atama sifatida shakllandi. Lekin “madaniyat” talaffuziga faqat ijobiy jihatdan yondashilgan, deyish xato boʻladi. Tarixda bir madaniyatning ikkinchisi ustidan boʻlgan tazyiqi tufayli unga salbiy dushmanlik munosabati hissiyotlar orqali shakllangan davrlar boʻlgan. Dastlabki koʻrinish Angliyada XIX asrda vujudga kelib, unda muhtasham “estesizm” va “lirik hayot” oʻrtasidagi qarama-qarshilik M.Arnold asarlarida paydo boʻladi. Bu davrda estetsizm tanqidchilari isteʼmoldagi “culture” soʻzi oʻrniga raqiblari tomonidan “kashf qilingan” masxaromuz oʻxshatish shaklidagi “culchah” soʻzidan foydalan-ganlar. Madaniyatga nisbatan salbiy istehzoli qarashlar keyinchalik boshqa xalqlarning turmush tarzlarida ham tez-tez ifodalanadigan boʻlindi.

Madaniyatga nisbatan dushmanona kayfiyatning shakllanishi mustamlakachilik va ikkita jahon urushini vujudga keltirdi. XX asrning dastlabki oʻn yilliklarida nigilizm va avangardchilar, 60-70-yillardagi yoshlar harakatlari Gʻarbda madaniyatni anʼanaviy tayanch hamda insoniyat kelajagi yoʻlidagi asosiy toʻsiq sifatida koʻrib, uni butkul bartaraf qilish uchun boʻlgan turli ziddiyatlarni paydo qildi. Madaniyatga nisbatan doimiy dushmanlik munosabati, bir tomondan maʼlum toifa ziyoli kishilarning tanadagi aql va qalb haroratini baholashda oʻzlarini haddan ziyod yuqori baholovchi, nisbatan asossiz daʼvolari bilan bogʻliq edi. Ikkinchidan, oddiy insonlarga nisbatan kamtarona munosabatning hamma vaqt ham yetishmasligi “madaniyatli hisoblangan” kishilarga norozi munosabatlarni kel-tirib chiqarar edi. Shu tipda tushuniladigan madaniyatni taʼriflash uchun turli millatlarda kamsituv maʼnosida maxsus atamalar yuzaga keldi. Jumladan, Amerikada culture-vulture, Rossiya va rusiyazon MDH davlatlarida shunga yaqinroq “kultur-multur” jumlasini ishlatilsa, oʻzbeklar orasida koʻpincha “madaniyat-padaniyat” kabi norozi ohanglar qoʻllanilib turadi.

Madaniyat sotsiologiyasi sohaning tarmoq yo'nalishi hisoblanib, u madaniyatning vujudga kelishi, zamonaviy holati va istiqbolini tarixiy va ijtimoiy tadqiqotlar yordamida o'rganadi. Madaniyatning jamiyat hayotidagi roli haqida tasavvurlar jiddiy ravishda o'zgarib borar ekan, shunga mos ravishda sohaning predmeti, maqsadi, tuzilmasi va usuli haqidagi tasavvurlar ham yangidan shakllanmoqda. AQSH universitetlarida "madaniyat sotsiologiyasi" fani o'rniga "madaniy antropologiya" yoki "ijtimoiy antropologiya" fani o'qitilib, asosan, madaniyatning etnik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy antropologiya va madaniyat sotsiologiyasi umuman olganda madaniyat falsafasining ilmiy metodologiyasi va tahliliy apparatini keng qo'llaydigan, o'z oldiga ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar qonuniyligini aniqlash va tahlil etishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Ko'p holatlarda u "ijtimoiy-madaniy tahlil" deb ham ataladi. Ijtimoiy-madaniy tahlil – ilmiylikka qo'yiladigan keskin intizomdan ko'ra ko'proq nazariy tadqiqot yo'nalishi bo'lib, o'zida obyektivlik va subyektivlik jarayonlarini ham gavdalantiradi.

"Ijtimoiy madaniyat" atamasi sotsiologiyada "ijtimoiy munosabatlardagi madaniyat" [Фролов 1999, 125] deb ham nomlanishi mumkin. U kishilarning jamiyatdagi xulq-atvorlari va o'zaro ijtimoiy munosabatlari asosida shakllangan qadriyatlar tizimi bo'yicha tartibga solinib kelingan. Ijtimoiy madaniyatning asosiy o'zagi jamiyat, davlat va boshqa ijtimoiy institutlarning faoliyatida namoyon bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy madaniyatning asosiy shakllari o'zida axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyat turlarini qamrab oladi.

Kishilik jamiyatining insoniyat dunyosi va tabiatiga nisbatan aynan to'g'ri kelmasligida biz ijtimoiy tarix qonuniyatlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos jihatlar mavjudligini qayd etamiz. Shuningdek, bunda biz sotsiumning faqat insonga xos bo'lgan faoliyat shakli, ya'ni madaniyatning yuzaga kelish va mavjud bo'lish jarayonlarini hisobga olamiz, umumlashtiramiz. Insoniyat turining tabiiy yashash muhiti – organik butunlik, insonlar mavjudligining zaruriy asosidir. Inson va uning yashash muhiti bu butunlikning o'zaro tobe qismi sanaladi. Biroq insoniyat dunyosi va aniq insonning o'z tabiati yoki o'zga kishilarga aynan to'g'ri kelmasligida insonning tabiiy organik butunligiga moslashish jarayoni "fojiaviy" o'rin tutgani yo'q. O'ziga o'xshaganlar bilan muloqotga kirishish zarurati – ijtimoiy tarix, ijtimoiy taraqqiyot va kulturogenezning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib chiqdi [Культура, культурология и образования 1997,

4].

XXI asrning so'nggi o'n yilligida ijtimoiylik bilan bog'liq masalalar dunyo hamjamiyatining diqqat-markazida turadigan bo'ldi. Uning ahamiyati shundaki, taraqqiy etib borayotgan jamiyatda mazkur masala, ya'ni "ijtimoiylik"ka nisbatan qo'shimcha o'zlashtirilgan yoki o'zgartirilgan, ammo natijasiz "sayqal" berish yuqorida ta'kidlaganimiz sotsiumda kutilmagan tug'yonlarga olib kelishi mumkin.

Sotsiologik nuqtayi nazardan har qanday madaniyatning ijtimoiy munosabatlar tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, fan nuqtayi nazaridan mutaxassislar ushbu jarayonni "madaniyat", "ijtimoiyat" yoki "siyosat" deb alohida talqin qilishdan ko'ra, ilmiy asosda "ijtimoiy-madaniy" deb fikr bildirishga odatlanganlar. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy madaniyatni "ijtimoiy-madaniy" jarayon sifatida qarash ham mumkin. XX asrning taniqli olimi S.Xantington fikricha, "Yangicha shakllanayotgan dunyoda mohiyatan mavjud nizolarning asosini mafkura yo iqtisod tashkil etmaydi. Insonlarning bir-birlaridan uzoqlashuvi va ular o'rtasidagi nizolarning manbalari madaniyat orqali sodir bo'ladi" [Грачев 2000, 10].

Axborot-kommunikatsion madaniyat bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan kanadalik antropolog va madaniyatshunos G.Maklyuen insoniyat tarixida muloqot va madaniyatning uchta shakli bo'lib o'tganligiga alohida e'tibor beradi. Demak, bular: a) og'zaki an'analarga asoslangan madaniyat; b) yozuv va bosma yozuv an'alariga asoslangan madaniyat; v) madaniyatning elektron shakli [McLuhan 1994, 92]. Bundan kelib chiqqan holda, biz O'zbekiston sharoitida G.Maklyuen tomonidan keltirilgan izohning uchinchisi, ya'ni madaniyatning elektron shakli tobora rivojlanib borayotganligini e'tirof etamiz.

Ramziy tasavvurlarda madaniy talvasa belgilari

Ijtimoiy-madaniy jarayonlar ichida keng tarqalgan hodisalardan biri - "madaniy talvasa", aniqrog'i, madaniy talvasaga tushish hisoblanadi. Ushbu atamani ilk bor 1960-yili amerikalik tadqiqotchi Kalervo Oberg ilmiy muomalaga kiritgan. Madaniy talvasaning paydo bo'lishi oddiydan murakkabga qarab boradi, insonda pessimistik, ya'ni noxushlik kayfiyati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p madaniy talvasaga tushadi. Bunda eski bilan yangi o'rtasidagi to'qnashuv, kechagi kun bilan bugunning bir-biriga mos tushmasligi, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar, geografik hududning o'zgarishi asosida psixologik va ijtimoiy kayfiyatdagi tushkunlik holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Boshqa bir amerikalik mutaxassis F.Bok fikricha: “Madaniy talvasa insonda oʻzga dunyo bilan oʻzaro faoliyatga kirishish natijasida oʻzi uchun notanish boʻlgan belgi va ramzlar bilan toʻqnash kelish oqibatida vujudga keladigan tashvishli holatni ifodalab, hadiklar asosida paydo boʻladi” [Bock 1970, 23]. U oʻzining madaniy antropologiya boʻyicha maqolalar toʻplamining kirish qismida (bu qism Culture Shock, yaʼni “Madaniy talvasa” deb nomlangan) muammoga quyidagicha taʼrif beradi: “Madaniy talvasa soʻzining keng maʼnodagi mazmuni, aytaylik, kimdir oʻz uyini tark etayotganida, keyinchalik shu uyga oʻzining begona boʻlishidir. Inson madaniy talvasa holatida xuddi iblisning vasvasasiga tushgandek, mutlaqo oʻziga notanish boʻlgan, ammo mavjud makonda hamma vaqt bayon etib kelingan ishonchli va qabul qilingan hodisalarning guvohi boʻladi. Siz tasodifan kirib kelgan guruhda odamlar har kuni ijro etadigan umumiy madaniy rollarga sherik boʻlishingizga toʻgʻri keladi. Bunda oʻzingiz oʻylab koʻrgandek soʻz va muomalangizni loyihalashtirishning iloji boʻlmaydi. Chunki barcha, shu jumladan, koʻpchilik qatori dunyoni amalda bir xil koʻrasizlar, bir birlaringizdan nimani kutishni bilasizlar. Shunday boʻlsa-da, begona jamiyatga oʻtib, siz qiyinchiliklarga duch kelasiz, tanangizda ojizlik va adashish hissini tuyasiz, buni ilmiy tilda madaniy talvasa deyish mumkin” [Bock 1970, 24].

Oʻquvchimizga muammo yanada tushunarli boʻlishi uchun quyidagi misolni keltirish oʻrinli boʻladi. Tabiatan hisob-kitobli va oʻziga xos tartibga amal qilib yashaydigan Gʻarb kishisi uchun oʻzbeklar turmush tarzida alohida ahamiyat kasb etadigan nahorgi osh marosimi madaniy talvasa holatini keltirib chiqarishi aniq. Erta tong sahardan musiqa sadolari ostida toʻkin dasturxon ustida issiq somsa va yogʻli palovni 200 tadan 500 tagacha odamga bepul tarqatilyotganini koʻrib, u oʻzida diskomfort sezadi. Shuningdek, uning ertalabki nonushta vaqtida bir finjon kofe yoki apelsin sharbatini ichib, ish joyiga ketishi hisobga olinsa, ushbu marosim jarayoni bilan ilk toʻqnash kelgan har qanday odamdagi noqulaylikni his etish oson. Oʻz navbatida, boshqa jamiyat kishisining oʻzga madaniy dunyoga tushib qolganda shu kabi marosim yoki odatlar oldida dezorientatsiya, yaʼni ajralib qolish holatini zamonaviy dunyoda tez-tez kuzatish mumkin.

Madaniy talvasaning mazmuni eski va yangi oʻrtasidagi madaniy meʼyor va orientatsiyalar toʻqnashuvida namoyon boʻladi. Oʻtmishga aylangan davrning ishtirokchisi va guvohi boʻlgan shaxs avval shu jamiyatga xos boʻlib, keyinchalik uni tark etishi natijasida

yangi bir ijtimoiy hayotning ifodalovchisiga aylanishi mumkin. Buni biz sobiq ittifoq davrida ta'lim olib, butun hayotini mustaqillikka baxshida qilgan odamlar misolida ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, madaniy talvasa – individual (shaxs) ong darajasidagi ikki madaniyat to'qnashuvi. Zinhor uni etnik yoki diniy madaniyatlardagi kelishmovchilik omillari bilan bog'lash kerak emas. Muayyan insonning madaniy talvasa holatiga tushishi uning o'zga muhitdagi madaniyat bilan to'qnash kelib, shuning natijasida o'zida diskomfort, ya'ni noqulayliklarni his etishi bilan bog'liq.

Madaniy talvasa faqat bir shakl bilan uzoq muddat davom etmaydi. Buning uchun individ o'zida mujassam bo'lgan stereotip (ongda qotib qolgan odat)larni qaysidir tartibda sindirib boradi. Jumladan, XX asr boshidagi ta'lim tizimida erkak va ayol jinsiga mansub bo'lgan kishilarning bir sinfda bilim olishi madaniy talvasa sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, bugun bu jarayon oddiy holatga aylanib ulgurdi. Yoki ayol kishining avtomobil boshqarishini bundan 15-20 yil oldin ko'rib, o'zida noqulayliklarni his etgan qanchadan qancha odamlarni uchratish mumkin edi.

Dunyoning globallasuvi va axborotlar ko'lami tarqalishi avj olib borayotgan bugungi davrda har qanday odam bir necha bor muayyan darajadagi madaniy talvasa holatini o'z tanasida his etishi mumkin. Bunga milliy yoki diniy farqlar, kiyinish, ovqatlanish, musiqa, oilaviy muhit tarbiyasi kabi omillar ta'sir o'tkazadi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, bir jihatdan madaniy talvasa holatida kimdir tezda o'zini o'nglab olsa, ikkinchi holatda insonlar og'ir noqulaylik ichida qolib ketishi mumkin.

F.Bok fikricha, talvasa holatidagi madaniy to'qnashuvli nizoni yechishning besh usuli mavjud. Birinchi usulni u shartli ravishda "gettolashgan" ("getto" so'zidan olingan) deb ataydi. Zamonaviy jamiyatda migratsiya jarayonlarining avj olishi gettolashish omilini kuchaytirmoqda. Shaxsning o'zga jamiyatga kelib qolganida mahalliy tilni bilmasligi, tortinchoqlik, o'zga dinga e'tiqod va boshqa shu kabi sabablar tufayli o'ziga notanish bo'lgan madaniyat bilan muomalaga kirishishga majbur bo'ladi. Shunday sharoitda u o'zining shaxsiy madaniy muhitini yaratishga harakat qiladi. Boshqa hamyurtlari, qarindosh-urug'lari, qabiladoshlari bilan o'zlariga mos bo'lgan muhit yaratib, mavjud "begona" madaniyat ta'siridan o'zini o'rab oladi, ya'ni himoya vositasini yaratadi.

G'arb mamlakatlaridagi ko'plab katta, o'rtacha, hatto, kichik shaharlarda mahalliy madaniyatdan keskin farq qiladigan getto madaniyatlari paydo bo'ldi. Bularga hind, xitoy, turk, arab va shu kabi

kvartallarni misol qilish mumkin. Masalan, Berlinning Kroysberg tumaniga bir necha o'n yillar davomida turk migrantlari va qochoqlari kelib joylasha boshladi. Nemis olami va turmush tarzini qabul qilishni istamagan turklar o'z ijtimoiy dunyosini ajdodlar an'analari asosida davom ettirib, butunlay yopiq tizim yaratadi. Natijada, turk diasporasi o'rniga o'ziga xos getto paydo bo'ldi. Bu kabi tumanlarda istiqomat qiluvchilar nafaqat turkcha talaffuzda gaplashishadi, unda hatto, ko'chalar nomlari va qiyofasi, undagi reklama va e'lonlar ham turk tilida bitilgan. Turkcha tamaddixonalar va restoranlar, turk banklari va sayohat byurolari, turk partiyalari vakolatxonalari va devorlarda turk tilidagi siyosiy shiorlarni har qadamda uchratish mumkin. Kroysbergda butun umr nemis tilida biror so'z gapirmasdan yashab o'tish mumkin. Bunday getto arman va gruzinlarda ham 1917-yilgi inqilobdan oldin Moskvada bo'lgan. Kanadaning Toronto shahrida gettolashgan tumanlar shu darajada o'ziga xos milliy ahamiyat kasb etganidan amerikalik kinorejissyorlar Kalkutta, Bangkok yoki Shanxayda olinishi kerak bo'lgan sahnalarni Torontodagi kvartallarda olishni ma'qul ko'rishadi.

Madaniy to'qnashuvga oid nizolar yechimini hal etishdagi ikkinchi usul – assimilyatsiya, ya'ni "qorishib ketish" bo'lib, u o'z mazmuniga ko'ra, gettolashgan jarayonning aksi sanaladi. Assimilyatsiya jarayonida shaxs o'zining asriy madaniyatini rad etib, o'zi uchun yangitdan o'zlashtirilgan vatanning madaniy-ma'naviy boyliklarini to'lig'icha o'zlashtirishga harakat qiladi.

Talvasali holatdagi madaniy to'qnashuv nizosini yechishning uchinchi usuli "oraliq masofali" bo'lib, unda madaniy aloqalar o'zaro hamkorlikda mujassam bo'ladi. Aloqalar to'g'ri amalga oshishi va har ikki tomonga foydali bo'lishi uchun o'zaro xayrixohlik va oshkoralik bo'lishi shart. O'zaro munosabatlarda tomonlarning biri "avtoxton" (mahalliy) va ikkinchisi "muhojir" (qochoq) bo'lsa-da, tarixda muvaffaqiyatli madaniy aloqalar ko'p uchragan. Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston, xususan, Toshkent shahriga juda ko'p turli millat vakillari evakuatsiya qilindi. Odamlar bilan birga yirik sanoat korxonalari, ilmiy akademik tashkilot va muassasalarning ko'chirib kelinishi fan va ta'limning rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. O'zbek va turli millatga mansub madaniyatlarning yaqinlashuvi o'ziga xos madaniy simbiozni shakllantirdi. Aholi orasida ko'p tillilik paydo bo'ldi. Jamiyatning intellektual iqlimi o'zgarib, dinlararo va millatlararo totuvlik kuchaydi. Umuman olganda, o'zaro madaniy aloqalarning natijalari birdaniga amalga oshishi bilan ko'zga ko'rinmaydi. Ular vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini namo-

yon qilib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatdan jiddiy tus olib bordi.

To'rtinchi usul qisman yoki "vaqtinchalik assimilyatsiyalashuv" deb nomlanib, unda shaxs ijtimoiy hayotning muayyan tarmoqlarida o'zga madaniyat foydasiga o'z madaniyatini qisman qurbon qiladi. Masalan, xizmat joyida o'zga madaniyat muhiti me'yor va talablariga moslashsa, oilasi va qarindosh-urug'lari davrasi, ma'naviy-maishiy sohalarda o'zi mansub madaniyat normalariga amal qiladi.

Madaniy talvasani bartaraf etishning ushbu usuli bugungi zamonaviy jamiyatning eng ommalashgan ko'rinishi hisoblanadi. Ko'pincha muhojirlar o'zga dunyoga qisman assimilyatsiyalashadi va o'z turmush tarzini ikkita, lekin bir-biriga teng bo'lmagan qismga ajratishga majbur bo'ladi. O'zga hududda gettolashgan madaniyat to'liq shakllanmasa, unda shaxsning mavjud muhitga qorishib ketishi qisman yuz beradi. Lekin qisman assimilyatsiya jarayoni keyingi avlodlarga o'tganda to'liq assimilyatsiyalashuvga o'tib ketishi mumkin.

Xulosa

Davriy o'zgarishlar natijasida XX asr tadqiqotchilarining e'tibori ko'proq "konstant" madaniyatlar, ya'ni barcha xalqlarning turmush tarzidagi doimiy barqaror elementlarni ozmi-ko'pmi darajada o'zgartirmagan holatda o'rganishga qaratiladi. Bunda insonning borlig'ini madaniy bezovchi rang-baranglikdagi farqlar alohida ajratib olinadi. Natijada, madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarning mavzusi ham o'zgarib boradi. Sotsiologiyada asosiy mavzu sifatida insoniyatning tarixiy madaniyati emas, balki aniq mavjud madaniyatlar tadqiqot obyektiga aylandi. Asta-sekinlik bilan bunday yondashuvlar global evolyusionizmga oid qarashlardan voz kechishga olib keldi. Yakunda ta'kidlash mumkinki, zamonaviy jamiyatda taraqqiyot omili yetakchilik qilar ekan, hech bir jabhada ramziy belgilar qaysidar ma'noda madaniyatning asosiy mavzusi sifatida e'tirof etilmaydi. Biz buni dolzarb tadqiqot muammolariga aylangan "axborotlar olish madaniyati", "intellektual madaniyat", "kasbiy madaniyat", "ekomadaniyat", "tafakkur tarzi madaniyati", "e'tiqod madaniyati" kabi ko'plab jummalarda uchratamiz.

Adabiyotlar

- Андерхилл, Э. 2000. *Мистицизм. Опыт исследования природы и законов развития духовного сознания человека*. Пер. с англ. В. Трилиса. Москва: Неволина. Киев.
- Бекон, Ф. 1979. *Новый Органон*. Сочинение в 2-х т. Т. 2. Москва: Мысль.

- Bock, Ph.K. 1970. *Culture Shock. A reader in modern cultural anthropology*. New York.
- Даль, В. 1881. *Тольковый словарь живаговеликорускаго языка*. Москва: Издание книгопродавца-типографа М.О.Вольфа.
- Элиада, М. 2000. *Избранные сочинения: Миф о вечном возвращении; Образы и символы; Священное и мирское*. Пер. с фр. Москва: Ладомир.
- Элиаде, М. 1994. *Священное и мирское*. пер. с фр. Н. К. Грабовского. Москва: Изд-во МГУ.
- Дюркгейм, Э. 1998. *Элементарные формы религиозной жизни*. В кн. *Мистика. Религия*. Наука. Классики мирового религиоведения. Антология. Москва: Канон.
- Грачев, Г.В. 2000. "Информационные технологии политической борьбы в российских условиях". *Полис* 3: 10.
- Гегель, Г. 1992. *Феноменология духа*. СПб.: Наука.
- Редклифф-Браун, А.Р. 2001. *Структура и функция в примитивном обществе*. Очерки и лекции, 217-386. Москва: Восточная литература РАН.
- Ильченко, В.И., Шелюто, В. М. 2016. *Духовная культура в пространстве сакрального: Монография*. СПб: Изд-во "Ъ", Луганск: ООО Пресс-экспресс.
- Иванов, В. И. 1994. *Мысли о символизме. Родное и вселенское*. Москва: Республика.
- Красников, А.Н. 1999. "Экология религии". *Вест-к Московского ун-та. Философия* 7(1): 63.
- Кассирер, Э. 2000. *Сущность и действие символического понятия. Избранное: Индивид и космос*. Москва: СПб.: Университетская книга.
- Касперавичюс, М. М. 1990. *Функции религиозной и светской символики*. Ленинград: Знание.
- Культура. 1997. *Культурология и образования*. Материалы "Круглого стола". Выступления В.А. Лекторского. Вопросы философии 2: 4.
- McLuhan, M. 1994. *Understanding Media: The Extensions of Man*. Cambridge.
- Тернер, В. 1983. *Символ и ритуал*. Москва: Наука.
- Pareto, V. 1963. *Mind and Society: A Treatise on General Sociology*. New York: Dover.
- Noble, T. 2000. *Social Theory and Social Change*. New York: St Martin's Press, 109-110.
- Свасьян, К.В. 1989. *Философия символических форм Э.Кассирера*. Ереван: Изд-во АН АрмССР.
- Шиммель, А. 1999. *Мир исламского мистицизма*. Пер. с англ. Н. Пригориной, А. Раппопорт. Москва: ООО Садр.
- Фрейд, З. 2006. *Тотем и табу*. Смотрите в книге: Я и Оно, 386-387. Москва: ЭКСМО.
- Фалсафа қомусий луғат. 2004. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. Тошкент: Шарқ.

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of Religious Symbols

Komil Kalanov¹

Abstract

The article explores the historical and socio-cultural aspects of the system of religious symbols through a sociological analysis. The study of religious symbols is crucial for understanding the identity of a particular community. The historical and socio-cultural description is particularly relevant in Uzbekistan, where it has become a significant element in expressing national identity during the years of independence. This allows for the study of symbolic representations of religious affiliation that reflect national identity. In sociological literature, the term “symbols” often evokes the concept of culture. However, another aspect is evident in history – “documented monuments.” Historical documents leave behind two legacies: history and culture. Any monument is illuminated in the text of a particular document, and secondly, the artistic taste of the Arabs instinctively led them to prefer polychrome white monuments. The author focuses on these aspects in their research, using the widely used “document analysis” method in sociology to study the transformation of the problem from one period to another, culminating in the impact of religious architecture on identity in the modern world and its socio-cultural foundations.

Key words: *religious symbols, historical memory, social memory, national identity, religious identity, sociology, socio-cultural characteristics, transformation, socio-cultural description, religious symbols.*

References

- Anderhill, E. 2000. *Mistitsizm. Opyt issledovaniya prirody i zakonov razvitiya duxovnogo soznaniya cheloveka*. Per. s angl. V. Trilisa. Moskva: Nevolina. Kiev.
- Bekon, F. 1979. *Новый Organon*. Sochinenie v 2-x t. T. 2. Moskva: Мысл.
- Bock, Ph.K. 1970. *Culture Shock. A reader in modern cultural anthropology*. New York.
- Dal, V. 1881. *Tolkovnyy slovar jivagovelikoruskago yazyka*. Moskva: Izdanie knigoprodavsa-tipografa M.O.Volfa.

¹*Komil K. Kalanov* – PhD in Sociology, professor, Tashkent International University of Financial Management and Technologies (TIFT).

E-mail: komiljon@yandex.ru

ORCID ID: 0009-0009-2344-1814

For citation: Kalanov, K. K. 2024. “A Historical and Socio-Cultural Description of the System of Religious Symbols”. *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 120– 146.

- Eliada, M. 2000. *Izbrannyye sochineniya: Mifo vechnom vozvrachenii; Obrazy i simboli; Svyashchennoe i mirskoe*. Per. s fr. Moskva: Ladimir.
- Eliade, M. 1994. *Svyashchennoe i mirskoe*. per. s fr. N. K. Grabovskogo. Moskva: Izd-vo MGU.
- Dyurkgeym, E. 1998. Elementarnyye formi religioznoy jizni. V kn. *Mistika. Religiya. Nauka. Klassiki mirovogo religiovedeniya*. Antologiya. Moskva: Kanon.
- Grachev, G.V. 2000. "Informatsionnyye tekhnologii politicheskoy borbi v rossiyskix usloviyax". *Polis* 3: 10.
- Gegel, G. 1992. *Fenomenologiya duxa*. SPb.: Nauka.
- Redkliff-Braun, A.R. 2001. *Struktura i funktsiya v primitivnom obshestve*. Ocherki i leksii, 217-386. Moskva: Vostochnaya literatura RAN.
- Ilchenko, V.I., Shelyuto, V. M. 2016. *Duxovnaya kultura v prostranstve sakralnogo*: Monografiya. SPb: Izd-vo. Lugansk: OOO Press-ekspres.
- Ivanov, V. I. 1994. *Mysli o simvolizme*. Rodnoe i vselenskoe. Moskva: Respublika.
- Krasnikov, A.N. 1999. "Ekologiya religii". *Vest-k Moskovskogo un-ta. Filosofiya* 7(1): 63.
- Kassirer, E. 2000. *Sushchnost i deystvie simvolicheskogo ponyatiya*. Izbrannoe: Individ i kosmos. Moskva: SPb.: Universitetskaya kniga.
- Kasperavichyus, M. M. 1990. *Funksii religioznoy i svetskoy simvoliki*. Leningrad: Znanie.
- Kultura. 1997. Kulturologiya i obrazovaniya. Materialy "Kruglogo stola". Vystupleniya V.A. Lektorskogo. *Voprosy filosofii* 2: 4.
- McLuhan, M. 1994. *Understanding Media: The Extensions of Man*. Cambridge.
- Terner, V. 1983. *Simvol i ritual*. Moskva: Nauka.
- Pareto, V. 1963. *Mind and Society: A Treatise on General Sociology*. New York: Dover.
- Noble, T. 2000. *Social Theory and Social Change*. New York: St Martin's Press, 109-110.
- Svasyan, K.V. 1989. *Filosofiya simvolicheskix form E.Kassirera*. Yerevan: Izd-vo AN ArmSSR.
- Shimmel, A. 1999. *Mir islamskogo mistitsizma*. Per. s angl. N. Prigorinoy, A. Rappoport. Moskva: OOO Sadra.
- Freyd, Z. 2006. *Totem i tabu*. Smotrite v knige: Ya i Ono, 386-387. Moskva: EKSMO.
- Falsafa qomusiy lug'at*. 2004. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent: Sharq.
- Frolov, S.S. 1999. *Sotsiologiya*. Moskva: Gardarki.